

Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li

e-mail: mominovnodir04@gmail.com Tel: +998902494943

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi.

Annotatsiya: XVI-XIX asrlar atrofini qamrab olgan yangi O'zbek davlatlarining tashkil topish jarayonida vujudga kelgan Qo'qon xonligi ilm-fan va madaniy hayotning yuksak rivojlanganligi bilan birga, she'riyat va san'at taraqqiyotidan ham ortda qolmagan. Qo'qon xonligi adabiy muhiti haqida gapirganda Umarxon va Nodirabegimlarni alohida aytib o'tishimiz lozim. Chunki ularning ijodi va ijod ahliga yaratib bergan qulayligi faqat Qo'qon xonligi adabiyotiga emas, balki O'zbek adabiyoti rivoj topmog'iga ham dahldordir. Ushbu maqolada Umarxon va Nodirabegimlarning ijod yo'li bilan birga mumtoz adabiyotning ulkan taraqqiyoti manbalar asosida keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: Umarxon, Nodira, Qo'qon, Muhabbatnoma, Oltin beshik.

Аннотация: Коканское ханство, возникшее в период образования новых узбекских государств, охватывающее XVI-XIX вв., наряду с высоким развитием науки и культурной жизни, не отставало в развитии поэзии и искусства. Говоря о литературной атмосфере Коканского ханства, отдельно следует упомянуть Умар-хана и Надирабегима. Потому что их творчество и комфорт, который они создавали для творческих людей, способствовали не только развитию литературы Коканского ханства, но и развитию узбекской литературы. В данной статье на основе источников будет широко освещено великое развитие классической литературы, а также творческий путь Умархана и Надирабегима.

Ключевые слова: Умар Хан, Надира, Кокан, Муhabbatnoma, Золотая Колыбель.

Abstract: Kokan Khanate, which emerged during the formation of new Uzbek states covering the 16th-19th centuries, along with the high development of science and cultural life, did not lag behind the development of poetry and art. When talking about the literary atmosphere of the Kokan Khanate, we should mention Umar Khan and Nadirabegim separately. Because their creativity and the comfort they created for the people of creativity not only contributed to the literature of the Kokhan Khanate, but also to the development of Uzbek literature. In this article, the great development of classical literature along with the creative path of Umar Khan and Nadirabegim will be widely covered based on the sources.

Keywords: Umar Khan, Nadira, Ko'kan, Muhabbatnoma, Golden Cradle.

Bizga ma'lumki Qo'qon xonligi madaniy hayotida adabiyotning o'rni o'zgacha bo'lgan. Shu boisdan ham adabiyot taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan Qo'qon adabiy muhitining shakllanishi Qo'qonda madaniyat taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'lgan. XIX asrdan boshlab Qo'qon madaniy hayoti yangi bosqichda rivojlana boshladi. Shaharlar va qishloqlarda ilm dargohlari qurilishi avj oldi. XIX asr boshlarida Qo'qon xonligida 120 ta maktab, 40 ta madrasa va masjid, Marg'ilonda 10 ta masjid va madrasa, 80 ta maktab, Toshkentda 20 ta madrasa, 300 yaqin masjid faoliyat ko'rsatgan. Toshkentdagi masjidlarning 266 tasi shaharda joylashgan, qolgani esa shahardan tashqarida joylashgan. Bu raqamlar shundan dalolat beradiki, Qo'qon

madaniy hayoti o'z davri uchun yuqori darajada bo'lgan. Qo'qon adabiy muhitini yuksaltirishda Umarxon (1787, 1810-1822), Nodirabegim (1792-1842), Gulxaniy (1770-XX asr 20 yillari), Jahon Otin (1780-1841), Boborahim Mahrab (1640-1711) ka'bi insonlar alohida ajralib turadi. Qo'qon adabiyotini yuksaltirishda bu insonlar o'z davrining tolibi ilmlari bo'lgan¹.

Umarxon (to'liq ismi Amirsayyid Muhammad Umarxon) davrida adabiyot har qachongidan ko'p taraqqiy etgan. Bu fikrni Umarxon davri uchun quyidagi so'zlardan bilish mumkin. Miyon Buzrukning 1930 yilda Toshkentda chop etilgan "O'zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash" kitobida bu davr Qo'qon adabiy muhitini "Oltin beshik davri adabiyoti" deb ataydi. Bu ta'rifning ikki xil ma'nosi bor. Birinchisi, Qo'qon tarixchilari tomonidan to'qilgan "Oltin beshik" va Bobur haqidagi afsona bilan bog'lab Temuriylar bilan birlashtirish. Ikkinchi ma'nosi esa adabiy muhitda yaratilgan juda qulay ijodiy sharoit va jarayonlar ham ikkinchi ma'noda nazarda tutib o'tilgan.

Umarxon o'z davrining ma'rifatli hukmdorlaridan bo'lib ilm-fan rivojiga ham alohida e'tibor bergan. Bu davrda Tarixnavislik, tazkiranavislik, she'riyat, nasr, matbaa ishlari, adabiy hamkorlikning noyob mahsullari vujudga kelgan. Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkisasi aynan Umarxon buyurug'iorqali dunyoga kelgan adabiyot durdonasidir. Umarxon tashabbusi bilan dunyoga kelgan Fazliy tazkisasi tazkiranavislikda yangi yo'nalishni shakllantirdi. Kiyinchalik bu an'ana boshqa adabiy muhitlarda ham davom ettirilgan. Umarxon she'riy misralarida ko'p ma'lumotlar uchraydi, elchilik aloqalarida ham adabiyotdan ko'p foydalangan. Xususan Umarxon o'zining nasl-nasabi haqida devoni debochasida, "Vujudim gulbuni Temir Ko'ragon gulistoni shajarasini samarasidir. ... Xilqatim niholikim, Bobur Sulton chamanining navbodasidir" deb o'zining kelib chiqishini Temirzodalarga bog'laydi. Umarxon 1820 yili Usmonli Turk sultoni Mahmud II ga maktub yozib, elchi yuborganda ularga qo'shib Lutfiy, Navoiy va Amiriyning she'rlari jamlangan "Muhabbatnoma" nomli she'riy devon bo'lganligi ham qayd etiladi.

Atoqli adabiyotshunos Abdurauf Fitrat "XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotig'a umumiy bir qarash" nomli maqolasida Farg'ona adabiyotiga ham e'tibor qaratadi. Fitratning diqqatini tortgan barcha ijobiy va yaxshi jihatlarning, hamda sanab o'tilgan adiblar ijodi ravnaqining homiysi va rahnamosi etib Amir Umarxondir deb aytib o'tadi².

Umarxon davrida nafaqat adabiyot, balki boshqa sohalar uchun ham rivojlanish davri bo'lgan. Bunga misol tariqasida Xudoyorxon avlodlari tarixi kitobidagi ushbu fikrlar yaqqol namunadir. "Umarxon ibni Norbo'taxon saltanati davrida yuz bergan voqealar bayonidakim, u nur sochib adl oftobi bilan mamlakat tunini shariat chirog'i bilan yoritib, bid'at zulmatining zulmini yo'q qilgan va fitnasoz daxr va shu'badaboz osmon farg'ona mulki sultonlari boshiga turli qiliq ko'rsatayotgan kunlarda paydo bo'ldi"³. Sagdullaev va Mavlonovning "O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi" nomli kitobida ham Umarxon haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tiladi. Unga ko'ra Umarxon Qo'qonda katta qurilish ishlarini olib borganligi va din peshvolariga rahnamolik qilganligi uchun musulmonlar amiri unvonini oladi. Bu haqda boshqa adabiyotlarda ham ancha keng ma'lumotlar uchraydi. Uning davrida Qo'qon adabiy muhiti ham ancha yuksalgan. Umarxonning o'zi ham adabiyot bilan shug'ullanib "Amiriy" taxallusi bilan ijod qilganligi barchaga ma'lum⁴.

Umarxon davrida davlat hududi ancha kengayadi. Umarxon 1818-yili Qo'qonda katta jome masjidni qurishni boshlab yuborganligi munosabati bilan "Amir ul-muslimin" unvonini oladi. Shu

tariqa Umarxon dunyoviy hokimyat bilan birga, diniy va madaniy hayotda ham yetakchilikni qo'lg'a kiritadi⁵.

Amiriyning ijodiga kelsak, uning she'rlari ma'lum qismi "Majmuat ush-shuaro" tazkirasida to'plangan. Umarxonning she'rlari 1882 yili Istanbulda, 1905 yil Toshkentda bosma nashrlari yuzaga kelgan. Umarxon she'rlaridan namunalar 1945 yilda "O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi"da, 1959 yili tuzulgan "O'zbek adabiyoti" majmuasida nashr qilingan va keltirilgan edi. 1972 yili Toshkentda chop qilingan "Devon"dan 216 ta g'azal, 6 ta mustaqil muxammas, 3 ta musaddas, 6 ta tuyuq, Navoiy, Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil va Zaliliy, Kamol, Nobiy g'azallariga bog'langan tazmin muxammaslar joy olgan. Odatga ko'ra g'azal Amiriy she'riyatining eng yetakchi janridir. Amiriy shu janrda ishq ahlining amiri sifatida ko'zga tashlanadi. Shu janr orqali insonga xos his-tuyg'ular, boshidan o'tuvchi kechinmalar, orzulari va umidlari tarannum etadi. Demak muhabbat-shoir g'azallarining yetakchi mavzuidir. Amiriyning o'zbek va fors tillaridagi g'azallari musiqiyligi, fikriy-falsafiy teranligi, badiiy jihatdan go'zalligi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa "Qoshingg'a teguzmag'il qalamni", "Junun daryosi tug'yon aylamakni mandin o'rgandi", "Lab uyur takallumg'a, zulfni parishon qil", "Dedi, Yusuf ko'rub yorimni, jononing'a sallamno", "Xusnung kamola etti, ey mahliqo, muborak", "Surma tortib qilma jodu ko'zni, ey dilbar, qaro", "Jahon jano jamolingga tasadduq" ka'bi g'azallari o'zbek adabiyotining durdonasidir⁶.

Nodira. Mohlaroyim (1792-1842)-o'zbek shoirasi, marifatparvari hamda Qo'qon xoni Umarxonning umr yo'ldoshi bo'lgan. Mohlaroyim Nodira, Komila, Maknuna taxalluslari ostida O'n ming misraga yaqin ijodiy meros bizlarga qadar yetib kelgan. Uning asarlarida muhabbat, sadoqat, vafo, dard sistamlar aks ettiriladi⁷.

Nodira she'riyatida lirika alohida ajralib turadi. Nodira mumtoz poeziyaning hamma janrlarida qalam tebratgan. O'zbekcha va tojikcha g'azallari 5, 7, 9, 13 va ba'zan 18 baytli hajm va aruzning turli vaznlarida yaratilgan. Lekin Nodira g'azallarining asosiy qismi 7-9 baytlidir. Nodira ijodi davomida Navoiy, Fuzuliy, Bedil g'azallariga muxammaslar bog'laydi. Uning asarlarida talmex, majoz, tashbex, istiora, tazod, tashxis, intoq ka'bi badiiy vositalar zo'r mahorat ila qo'llanilgan⁸.

Bizga ma'lumki so'z san'atkorlari bino qilgan asarlari miqdori devon tartib etishda yetib borgan bo'lsada, she'r yozish mahoratlari malakalari takomilga yetgan, badiiy uslublari sayqal topgan davrlardagina devon yaratishga jur'at etgan. Mana shunday yetuk shoirlarni "sohibi devon" iborasi bilan ardoqlashgan. Nodira Zullisonayn shoira bo'lib o'z she'rlarini ikki tilda bitgan va ikki madaniyatni o'zlashtirgan ma'rifatparvar bo'lgan. Nodira ham sohibi devon shoira edi. Nodiraning she'riy merosi, bir qancha devonlarning qo'lyozmalari orqali bizning davrimizga yeib kelgan. 1960 yilga qadar "dol" harfigacha bo'lgan 109 g'azalni o'z ichiga olgan faqat bitta notugal devoni ma'lum bo'lgan. Uning debochasida Nodira Komila taxallusi bilan ham asarlar yozgani ma'lum. 1962 yil Namanganda Nodiraning yangi devoni topildi. Ushbu devonda 180 ta asar kiritilgan. Sharqshunoslik institutida 333 ta g'azaldan iborat Maknuna taxallusi bilan yozilgan devoni ham bor⁹.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Umarxon va Nodirabegimlar davrida Qo'qon adabiy muhiti yuksak muvaffaqiyatli rivojlanganligi e'tiborga va e'tirofga loyiq. Agarda Qo'qonlik shoirlar hayotiga nazar tashlasak, ularning hayot yo'li va mashhur asarlarining aksariyati Umarxon hukmronligi yillariga yaqin bir davrlarda yaratilgan. Bu hol ham ijod ahliga yaratib berilgan qulayliklarning mahsulidir. Bu yerda yashagan adabiyotchi shoirlarning ko'pi Zullisonayn ya'ni

ikki tilda she'r bituvchi shoirlardir. Ular tomonidan yaratilgan noyob devonlar ko'p tilli bo'lib qolmasdan mano va mazmuni juda nafis, diniy va dunyoviy so'zlar bilan sug'orilgan, ishq va sevgi, sadoqat va matonat, yurtga muhabbat hislari bilan bitilgan. Nima bo'lgan taqdirda ham Qo'qonlik adabiyot namoyondalari tomonidan yaratilgan asarlar nafaqat O'zbek-Tojik va Turkiy-Forsiy dunyosining, balki jahon adabiyoti va ijodining ajralmas qismi hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Eshov B.J, Odilov A.A. "O'ZBEKISTON TARIXI" II-kitob. Toshkent 2020. 340-342 b.
2. Jumaxo'ja N, Adizova I. "O'zbek adabiyoti tarixi" Toshkent 2019. 238-242 b.
3. Umarov Shohruxbek. "XUDOYORXON AVLODLARI TARIXI" Toshkent 2014. 101 b.
4. Sagdullaev A, Mavlonov O'. "O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI TARIXI" Toshkent 2006. 130-131 b.
5. Alimova Raxima Ruskulovna. "MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXI" Toshkent 2013. 131 b.
6. Orzibekov Rahmonqul. "O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI" Toshkent-2006. 165-170 b.
7. Eshov B.J, Odilov A.A. "O'ZBEKISTON TARIXI" II-kitob. Toshkent 2020. 342-344 b.
8. Bobobekov Xaydarbek Nazirbekovich. "QO'QON TARIXI" Toshkent 1996. 170-171 b.
9. Jumaxo'ja N, Adizova I. "O'zbek adabiyoti tarixi" Toshkent 2019. 280 b.